

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

KURS ISHI

**Mavzu: Hindistonda transport va telekommunikatsiyaning
rivojlanishi**

Bajardi: Maxmudov Ozod
Ilmiy rahbar: I.f.n. Sodiqova R.A.

Toshkent 2010

Reja :

Kirish

1. Hindiston havo va suv transport yo'llarining rivojlanishidagi yutuqlari
2. Hindiston temir yo'llarining rivojlanishidagi yutuqlari
3. Hindiston telekommunikatsiya va internet tarmog'ining jadal rivojlanib borishi

Xulosa

Kirish

O'zbekiston Evropa bilan Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoni transport va telekommunikatsiya bo'yicha birlashtiruvchi muhim koridor hisoblanadi.

1993-2003 yillar davomida O'zbekistondagi tashkilot va muassasalarda iqtisodiyot, telekommunikatsiya, transport infratuzilmasini va boshqa sohalarda ishlash uchun 150 nafar atrofida ekspertlar Yaponiyada malaka oshirdilar. Bizning fikrimizcha, transport va telekommunikatsiya sohalarida tobora ilg'orlab borayotgan Hindiston tajribasini o'rganish ham o'ta dolzarb hisoblanadi.

Transport aloqa vositalarining rivojlanishi ham o'z navbatida xalqaro mehnat migratsiyasining sezilarli rivojlanishiga imkon yaratadi.

XXI asr axborot texnologiyalari asri deb butun jaxon olimlari tomonidan e'tirof etilgani bejiz emas albata, ushbu davrga kelib xayotimizni informatsion texnologiyalarsiz tasavvur etish murakkab bo'lib qoldi. Ayni paytga kelib Hindiston nafaqat investitsiya jalb qiluvchi balki o'zi ham ushbu sohaga investitsiya ajratuvchi mamlakatlar qatoriga kirgan. Bunga yaqqol misol qilib Hindistonning mamlakatimiz Axborot Texnologiyalari Universitetiga 2005 yili ajratgan 700 000,00 AQSh dollari miqdoridagi mablag'ini ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

Mavjud transport koridorlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, muqobil transport magistrallarini barpo etish, O'zbekistonda axborot texnologiyalarini rivojlantirish dasturini amalga oshirilishini faollashtirish bularning barchasi o'z navbatida mamlakat milliy iqtisodiyotining yanada rivoj topishiga katta turtki bo'ladi.

1. Hindiston havo va suv transport yo'llarining rivojlanishidagi yutuqlari

Hindistonning ko'pchilik shaharlari jahondagi yirik shaharlar bilan havo yo'llari orqali aloqa qiladi. Asosiy aeroportlari Mumbai, Dehli, Kalkutta, Bangalor, Channay, Bxubaneshvar, Maduray shaharlarida joylashgan. Mamlakat ichkarisida xizmat qiladigan yana 90 ta aeroport mavjud. Hindiston havo yo'llari bilan O'zbekiston havo yo'llari orqali aloqa o'rnatilgan, Toshkent – Dehli yo'nalishida samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Hindiston umum milliy kompaniyasi bu “Air India” va “ Indian Airlins ” Hindistonda 19 ta Xalqaro Aeroport mavjud umumiy hisoblaganda 454 ta Aeroporti mavjud. Ammo ularning hammasi ham faolliyat yuritmaydi bundan tashqari Hindistonning 28 ta harbiy Aeroporti mavjud. Asosan Aerotransport Hindistonning 6 ta yirik shaharlaridan o'tadi: bular Dehli, Mumbai, Chinnay, Kalkutta, Haydarobod, va Bangalor hisoblanadi. Butun dunyo Aeroportlari faolliyatining baholovchi tashkiloti bo'lmish “Aeroportlar xalqaro kengashi ” butunjahon tashkiloti tomonidan 2009-yilda Haydarobodda qurilgan xalqaro aeroport jahondagi 10 ta eng yaxshi Aeroportlar ro'yhatiga kirgan.

Hozirgi kunda Hindiston fuqaro aviatsiyasi ichki yo'nalaishlarida iqtisodiy jihatdan foydasiz bo'lgan Boeing va Airbus samolyotlari o'rniga 50 va 100 ta yo'lovchi ketadigan samolyotlarni xarid qilishmoqda.



rasm1. R.Gandi nomli Xaydarobod shahridagi xalqaro aeroport



rasm 2. Nyu Deli shahri. I. Gandhi nomli xalqaro aeroportning yangi uchish-qo'nish yo'lagining tungi ko'rinishi.

Hozirgi kunda Hindistonda mamlakat ichida va xalqaro yo'nalishda aerotransportdan foydalanuvchilar soni 130 foiz ga oshdi. Ichki va xalqaro aviareslar bo'yicha yo'lovchilar soni 2002-yilda 49 million edi bu foiz ko'rsatkichida 11 ,60 foiz ni tashkil etardi 2008-yilga kelib bu ko'rsatkichlar

oshdi yo'lovchilar soni 118 millionga yetdi foiz ko'rsatkichida 31 ,40 foiz ni tashkil etadi . Registratsiya va kontrol uchun yo'lovchilar aeroportga 2 soat oldin yetib borish kerak bazi shaharlarda aerovokzal ham bor.



Hozirda Hindiston hukumati Aviataxi nomi bilan ishlayotgan 9 ta xususiy aviakompaniyalarga ichki reslar uchun ruxsat berdi bular “ Is West Airlins ” , “Sahara” , “Jet Airways ” va boshqa kompaniyalar dir .

2009- yil martda Haydarobodda transportsohasini rivojlantirish guruhining 7- konfrennsiyasi bo'lib o'tdi. Bu yerda yangi aeroport Hindistonning ushbu infrastrukturadagi fikrlarini namoyishi sifatida ko'rsatildi. Xalqaro Aeroportlar birlashmasi (XAB) ma'lumot berishicha yangi Haydarobod Xalqaro Aeroporti dunyoda 10 eng yirik aeroportlar qatoriga kiritilgan.

Albatta bu yo'l uzun, lekin keyingi yilda 6 ta yirik shahar o'zining yangi aeroportiga ega bo'lishi ko'zda tutilgan . Ular vaqtlar davomida 100 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatadi va Dehli hamda

Mumbai aeroportlari bilan raqobatlasha oladi. Hindiston hukumatining bashoratlariga ko'ra 2020 yilga kelib ushbu rejalar Hindistondagi turli joylarda qurilgan aeroportlar rivojlantiradi. Haydarobod va Bangalordagi aeroportlar qiymati 1 mlrd dollar atrofida. Yiliga ushbu aeroportlar 20 mln yo'lovchi tashish imkoniyatiga ega. Ikkala aeroport yirik avialayner Airbus A-380 Super Jambo ni qabul qila oladi. Shu yili 20 aprelda 1 D terminali ochildi Ushbu aeroport qurilishiga 3 mlrd dollar dan ortiq mablag' kiritilgan. Dehli aeroporti 50 mln dan ortiq yo'lovchiga xizmat ko'rsatadi. Dehli va Mumbai aeroportlari modernizatsiya qilinishi rejalashtirilgan. Modernizatsiya uchun 2,5 mlrd dollar investitsiya kiritilib 2010 – yil martda bitadigan qismiga 27,5 mln yo'lovchi qabul qilish , 2015 – yilga kelib ushbu ko'rsatkich 40 mln dan ortiq bo'ladi.

Haydarobod va Bangalorda qurilgan va faoliyat ko'rsatishni boshlangan aeroportlar tashqari yana 5 yangi aeroport qurilmoqda Goa va Keramadxin Konpur shahrida , Maxarashtra Puna shahrida, Mumbaida navi Mumbai, Patda Dinvar aeroportlari qurilmoqda. Har kuni 13700 ta turist va 40 ta yangi reys avialaynerlar Boeing 747-400. Agar aeroportlar o'z vaqtida qurilsa Hindistonda chet – el turistlariga qulay bo'ladi. Hozirgi kunda Hindistonda 249 ta qattiq qoplamali uchish va qo'nish yo'laklari va 103 ta yumshoq qoplamali yo'lakli aeroportlar mavjud. Qattiq qoplamalilar ichida uzunligi 914 metrgacha bo'lgan 15 dona, 914 metrdan 1523 metrgacha 81 dona, 1524-2437 metrgacha 75 dona, 2438-3047 metrgacha 57 dona, 3047 metrda ortig'i 21 donani tashkil etadi.

Yumshoq qoplamalilar ichida uzunligi bo'yicha eng kichigi 914 metrgacha va u 48 donani tashkil etadi. 914-1523 metrgacha 43 dona , 1523-2437 metrgacha 8 dona , 2438-3047 metrgacha 3 dona va 3047 metrdan ko'pi

1 donani tashkil etadi. 2010- yildagi ma'lumotlarga ko'ra vertaliyotlar uchish va qo'nish joyi mamlakatda 40 tani tashkil etadi.

Davlatning yirik vertalyot kompaniyasi bo'lmish "Pavan Xens Xelikopters" Hindistondagi "ONGC", "Oil India" kabi yirik neft kompaniyalariga xizmat qiladi.

1990 yilning aprel oyida butun Hindistondagi eksportchilar hamkorligida hukumat yangi "ochiq havolar" siyosatini e'lon qildi. Shundan so'ng xususiy aviakompaniyalar, mamlakat ichida va tashqarisida yuk jo'natmalarini bozorga kiritish yo'llari ochildi. Dastlabki aviaparvozlarni "Lyufganza Cargo India" o'zining 4 ta "Boeing 737-200" samaliyotlari bilan yirik kompaniyalar orasida birinchilardan bo'lib amalga oshirdi. Shu jumladan "Dart Eveyshn" kompaniyasi ham 3 ta "Boeing 737" yuk tashuvchi samaliyotlarini aytish mumkin. Natijada yuk yetkazib berish sifati ancha yaxshilandi, ularning raqobat bardoshligi o'sdi. Oxirgi 10 yil ichida yuk oqimining hajmi oshgani bois tariflar 15-20% ga qisqardi.

Yana shuni ham aytish kerakki, havo transportining infrastrukturasini va aeroportlarni hisobi bo'yicha Hindiston Osiyodagi ko'pgina davlatlar orasida ortda qoladi. Mamlakatdagi yuk va yo'lovchilar oqimlarining 74%ni Mumbay, Dehli, Kalkutta, Channay va Bangalor shaharlardagi yirik 5 ta aeroportlari orqali o'tadi. Yana yuk jo'natmalarini 16.3%ini Haydarobod, Gao, Janpur, Varans shaharlarida 10 ta yirik aeroportlar shug'illanadi. Hammasi bo'lib Hindistonda 120ga yaqin aeroport bo'lib, shulardan 62 tasi o'ratacha 2 tadan samalyot yoki kuniga 45 ta yo'lovchiga to'g'ri keladi.

Xalqaro va ichki tarmoqlarni kengaytirish maqsadida Hindiston hukumati hususiy aviakompaniyalar aeroportlarni qurishga ruxsat berdi. 1995-yil hindiston aeroport boshqarmasining oldiga qo'ygan asosiy vazifasi:

havo yo'llarini modernizatsiya qilish va jaxon talabariga javob beradigan yangi islohatlarni amalga oshirish. Aeroportlarning infrastrukturalarini rivojlantirish strategiyasiga yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash singari navigatsiya va komunikatsiya tizimlarini takomillashtirish kiradi. Loyihalarga binoan hususiy korxonalar yaqin bir necha yil ichida pul bilan taminlanadilar.

Mamlakat transport tizimida eng muhimi suv yo'li bo'lib, kemalar qatnaydigan daryo yo'llarining soni 14 ta. Mamlakat tashqi savdo aylanmasining 90 foizi dengiz yo'llari orqali amalga oshiriladi. Dengiz savdo flotining tonnaji 10 million 366 ming tonna, Hindistonning yirik dengiz portlari : Mumbai, Kalkutta, Kachin, Vishakxapatnam, Chinnay. Hindiston yirik savdo floti bo'yicha dunyoda 17 – o'rinda turadi uning dengiz chegaralari 6000 ming kilometr uzunlikni tashkil qiladi.



Sharqiy va G'arbiy qirg'oqlarida 12 ta dengiz portlari joylashgan yuklarning 95 foizi shu portlarda qayta ishlanadi . Asosiy portlardan tashqari 164 ta kichik portlari ham mavjud asosiy portlari davlatga qarashli . Qayta ishlanadigan yuklarning tuzilishi: Neft va neft maxsulotlari 40 foizni, o'g'it va xom-ashyo maxsulotlari 30 foizni, temir rudasi 18 foizni, kontenerlangan yuklar 10 foizni tashkil qiladi.

Mamlakatda 324 ta savdo floti mavjud bo'lib dunyoda 29- o'rinda turadi. Quruq yuk flotlari 94 ta, yukni o'zi 78 ta, ximik tanker 23 ta, konteynerlar 15 ta, suyultirilgan gaz 11 ta, yo'lovchilar floti 4 ta, yuk tashuvchui floti 12 ta, neftli tanker floti 87 tani tashkil etadi. Chet- el floti bo'yicha 8 ta flot Xitoyda 1 ta, Gonkongda 1 ta, Djersi va Malayziyada 1 tadan B.A.A ligida 4 ta savdo floti mavjud. Chet – elda ro'yxatdan o'tkazilgan Hindistonning 56 ta savdo floti mavjud: Kiprda 2 ta, Dominikada 2 ta, Liberiyada 1 ta, Maltada 4 ta, Marshal orollarida 8 ta, Nigeriyada 1 ta, Panamada 17 ta, Singapurda 19 ta savdo floti mavjud 2 ta savdo floti no'malum.

Hindistonda 149 ta kemasozlik kompaniyalari mavjud. Yirik portlarda yuklarni yuklanishi 215 million tonnani tashkil etadi. Savdo flotida 736 ta kema mavjud bo'lib eng yirik porti Bombay hisoblanadi. Dighi bu yuqori orzu umidlar porti bolib Mumbai limani bo'ylab 43 mil uzoqlikda joylashgan. Mumbai Balaji LTD loyihasi ostida rivojlangan bo'lib Iyungacha port afzalliklarini tekshirish uchun ancha yuksalib boradi. Va bir yildan keyinga Phase 1 ning to'liq tekshiruvigacha yuksalib boradi, u o'rnatilgandan so'ng, cargo qo'lda ishlash miqdori 30million tonnajni yetkazishga rejalashtirilgan.

Balaji CMD Vijay Kalantri Dighi Portning CMD hamdir, uning aytishicha uning porti Maharashtraning birinchi bo'lib tabiat boshlig'ini qabul qilgan, hamma boshqa ruxsatnoma va roziliklardan tashqari. “ Qo'shimcha qiymat ham Dighi osoyishta maqullanishi bilan SEZ har tomonlama portga asoslanib amalga oshirildi. Bu ochiq savdo ombori zonasini ham oz ichiga olib va bir poyezd yo'l loyihasini ham bog'lashni kafolatlaydi, deb aytadi u. Phase 1ga 1,650 karor (1 karor- 10 mln.)

miqdorda sarmoya kiritilish davomida, poyezd yo'l va yo'llarni qurish uchun 500 karor sarmoya kiritilib 3 ta hamma davr uchun hammasi bolib 2,500 karor miqdorda sarmoya kiritilishi rejalashtirilgan. Port Dighida qurilyapti all-weatherli, va chuqur landshaftlik va langar tashlab to'xtovchi port bo'lib Maharashtraning Raigad ko'chasidagi Murud va Janjira qishloqlarini to'sib turadi. Kalntrining o'gli va DPL direktori Vishal aytishadiki tovarlar quyidagi maxsulotlarga aylanadi: minerallarga, ko'mirga, POL ga kimyoviy moddalarga, og'itlarga, konteynerlarga, LNG ga sementga, temir rudasiga, neftga, avtomobil va avtomobil qismlariga.

Dighidan uncha uzoq b'olmagan Rewash porti Mukesh Ambani kompaniyasning bir ulkan manzilgohidir, Logistik investitsiyaga bog'liq bo'lgan Jai korparstsiyasi bu kompaniyaning boshqaruvchisi davlat ishchisi Anand Jaindir. Bu port g'arbiy sohildagi megaportdir u 5000 karor miqdorda 55 million aboroti bor. U 10 ta kichik qurilish portini qamrab olib bir yillik cargo tashish miqdori 55 million tonnani tashkil qiladi hamda 2.6 million miqdorda TEU ni tashiy oladigan konteyner porti hamdir. Lekin bu loyiha yer transferini amalga oshirish uchun SEZ ni ham o'z ichiga olgan holda mo'ljallangandir. Ikkala kompaniya ham bu loyihaga birlashib 65 % ulushni tashkil qiladi. MMB 11% ni va birinchi promoter Amma linyasi 24%ni egallab turibdi. Uning chuqurligi o'lchab ko'rilganda 14.5 metr deb topildi bu hozirgacha ham shundaydir.

Gujaratdagi 2 xususiy port Mundra va Pipavav portlari judayam tez rivojlanib kelayotgan portlardandir. Gautama Adanining Mundra porti judayam ko'p miqdordagi cargo turlaridan foydalanib qo'lga kiritib kelmoqda. U yerda hozir 3 katta qirg'oqda langar tashlab to'xtash mumkin

bo'lgan port, ko'mir g'amlash uchun 2 ta yirik ombor, temir va misni to'playdigan joy qurilmoqda.

Ikki stantsiya 64 kilometrlik temir linyasi bilan qo'shilish rejalashtirilmoqda.

Ikki shaxsiy portdan tashqari, Gujarat Maritime Board ning qo'l ostida tashkil etilgan portlar ham mavjuddir, ular cargo tashishda judayam yuqori o'sishga ega bo'lgan Jhakau, Navlakhi, Sikka va Veravallardir. Hindistonda Gujarat Maritime Board I portlarni xususiylashtirish yo'lini boshlab bergan. 2007-08-yillarda GMP portlari 198 million tonna miqdordagi yuklarni tashishga qodir bo'lgan. FY09 davomida Gujaratning muhim bo'lmagan portlari 235 million tonna yuklarni tashib 20%ga o'sishga ega bo'lgan. Bu o'sish qo'lda kengaytirish ham mumkin bo'lgan yangi loyihalarni amalga oshishiga yordam bo'lgan.

Agar Dubai portlari Hindiston Gateway Terminaliga ega bo'lganda 2005-yil fevralda u DP World Cochin deb qayta nomlangan vaqtda, unda Cochin Port Trust bilan 34 yillik shartnoma ham imzolangan edi. Bu shartnoma Vallarpadamda qurilish, idora qilish va transferga asoslangan Xalqaro konteyner transshipmentini rivojlantirishga qaratilgandir.

Rs2,118 karor va 115 gektar ICTT Vallarpadam Hindistonning birinchi global hub terminalini paydo bo'lishida bir manbadir, bu hududga yaqin o'rtada investitsiya oqib kelishi kutilmoqda. Bunga bir sabab SEZ Rs1,510 karor miqdoridan ham ko'rsa bo'ladi. Rivojlanish bir necha ko'rsatkichlarni ko'rsatadi bular: Rs1,600 karor LNG terminal, Rs315 karor xalqaro kema tuzatish kompleksi, Rs720 karor miqdordagi Kochin Refineries Ltd uchun kemalarni joylashtirishdir.

Sharqiy qirg'oq portlari Davlatning sharqiy qismida 12 dan ortiq dengiz portlari joylashgan.

Bir xususiylashtirilgan port Hindistondagi eng katta port bo'lishi mumkin bo'lgan to'liq ravishda foydalanishga tayyor bo'lgan Krishnapatnam portidir bu port Haydarobod Navayuga Engineering Co Ltd kompaniyasi tomonidan tuzilgan bu kompaniya Navayuga Group ning bir qismidir.

Andhra Pradesh Nellore hududida joylashgan Krishnapatham o'tgan yili savdo ishlarini boshlab yubordi besh oy rejaning boshi bo'lib hozir tashish xajmi 20 million tonna bo'lgan ish hajmini 100 million tonnaga yetkazishga harakat qilishmoqda. Deydi Krishnapatham Port kompaniyasining boshqaruv direktori va a'zosi C. Visveswar.

Krishnapatham kompaniyasi Ltd porti (KPCL) 50 yillik qurilish (bino)ga Andra Pradesh hukumati bilan boshqarish, taqsimot, arzon narxda yetkazib berish (sotish) shartnomasiga ega.

Uning Rs791 karor bosqichi (davri) mobaynida 18 oylik hisobotda tugatildi va o'tgan yil iyulda rasmiy ochildi, uning 2-bosqichida 2012-yil yanvargacha tayyor bolish uchun Rs4,000 karor moliyaga erishgan (muvaffaqiyatga erishgan).

Boshqa bir muvaffaqiyat voqeasi sharqiy qirg'oqda Hindistonning birinchi xususiylashtirilgan porti sifatida Kakinada chuqur suv bolgan. Kakinada dengiz portlari Ltd orqali 12 metr chuqur loyiha bilan umuman yuqotishsiz o'tish portlari boshqarilgan, 2008- 09 yillar 7,8 mln. tonna yuklar ro'yxatdan o'tgan. U 200000-320000 o'rtasidagi juda katta tamirlanmagan kemalardan 6,7 mln. tonna yuklarni qayiqma qayiq jo'natishni ham amalga oshirgan.

2. Hindiston temir yo'llarining rivojlanishidagi yutuqlari

Hindiston transport tarmog'i ancha rivojlangan bunda temir yo'l transporti yetakchi va muhim ro'l o'ynaydi. Temir yo'llarning uzunligi 109 ming kilometr, shundan 15 foizini elektrlashgan temir yo'l tashkil etadi. Tez yurar poyezdlari 100 km ni tashkil etadi. Temir yo'llarining uzunligiga ko'ra Hindiston jahondagi yirik beshta mamlakatlar qatoridan o'rin oladi. Temir yo'llarning boshqarish 9 ta regional ijrochilari orasida taqsimlanadi. Har kuni temir yo'llarida 17,2 mln yo'lovchi va 1,5 mln tanna yuk tashiladi.



Hindiston temir yo'llari vazirligi parkida 7,7 ming lokomotiv 44,8 ming teplavoz va 215 ming vagonlar bor. Hindistonda yiliga 5,5 mlrd aholi tashiladi. Hindiston halqaro temir yo'llari Osiyoda eng yirik xisoblangan kattaligi bo'yicha 2- o'rinda turadi. U 62300 km rels, 7030 dan ortiq yo'l stansiyalari va 11200 dan ortiq lokomotivlardan tashkil topgan. Yuqori qulayliklarga ega bo'lgan poyezdlar kartada belgilanmagan boshqa mashrutlar bo'yicha ham olib o'tadi. Temir yo'llar uzunligi joylarda bir stansiyadan ikkinchisigacha avtobuslar bilan ham yetib borsa bo'ladi. Temir yo'llar ham maxsus narxlarda mavjud bo'lib ular "India Pass" deb ataladi.

O'sha billet bo'yicha siz temir yo'llardan va xoxlagan poyezd yo'llarida biletning muddati tugaguncha yurishingiz mumkin. Bu dasturdan faqatgina chet elliklar va chet- elda yashovchi hindistonliklar foydalanishi mumkin. 5-12 yoshgacha bo'lgan bolalar Hindistonga bola ruxsatnomasi biletidan foydalanishlari mumkin, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar tekinga sayohat qilishi mumkin. 2001-yilda maxsus fondi temir yo'llar xafsizligining maxsus fondi tashkil etilgan fond qiymati 4 mlrd Aqsh dollarini tashkil etadi Ushbu mablag'lardan 16,5 ming kilometr yo'llar qurilishiga ajratilgan. 1989 yili Janubiy Osiyoda birinchi bor metropoliten yo'li ochildi . Birinchi metropoliten Kalkutta shahhrida qurilgan. Hindiston metrosi qurilishini yangi Dehli metropoliten 3 bosqichga bo'lingan 1- bosqich 2006 yil tugatilib 63 ta stansiya 3 ta linyasi qurilgan ularning umumiy uzunligi 65 km, 13 kilometri yer tagidan o'tgan, 2-bosqichi 2010- yilda tugadi shu bosqichni amalgam oshirishga 40 kilometr yo'l tugatilib shaharlarni shimoliy va janubiy rayonlarini bir – biriga bog'laydi. Yangi Dehli ham o'zizning metropoliteniga ega. 10 rupiyga g'arbdan to janubiy rayongacha Dehli universitetidan Kashmir darvozalarigacha etib olish mumkin. Metropolitenning barcha vagon va stansiyalari kuchli koditsioner va yong'in xafsizligi qurilmalari bilan ta'minlangan.

3. Hindiston telekommunikatsiya va internet tarmog'ining jadal rivojlanib borishi

Telefon va telegraflarni kashf qilinganidan bir necha yildan keyin Britaniya-Hindistonida paydo bo'la boshladi. Birinchi telegraf tarmog'i uzunligi 27 mil bo'lib 1851 yilda Kalkutta va Daymond Xabor oralig'ida o'rnatildi. 1856 yilga kelib telegrammalarni Kalkuttadan Agra, Bombay, Madras va Peshavarlarga jo'natish imkoni bo'lgan. 1869 yilda ingliz

sanoatchisi John Pender Britan-Hind telegraf kompaniyasiga asos soldi va ularning oldiga qo'yilgan asosiy vazifa: telegraf aloqasi yordamida Britaniyani Hindiston va Osiyoning boshqa mintaqalaridagi mamlakatlar bilan bog'lash. 1877 yilga kelib Britan-Hind kompaniyasi Hindistondagi keluvchi va chiquvchi barcha telegrammalarning 60%ni nazorat qilgan va Hindiston, Xitoy, Yaponiya va Avstraliya davlatlari bilan telegraf aloqalarini 80%ni nazorat qilgan. Birinchi telefon apparatini Aleksandr Bell tomonidan kashf qilingan. Oradan 5 yil o'tib, 1881 yilda birinchi 50 ta tarmoqli telefon stansiyasi Kalkuttada paydo bo'ldi. Birinchi avtomat telefon stansiyasi 700 ta tarmog'i bilan 1913 yilda Silma shahriga o'rnatildi. Hindistonda texnologiyalarning mukamallashuviga muvofiq telefon va telefon tizimiga oid texnologiyalar rivojlandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakarning asosiy shahar va aholilashgan punktlarida 3 kanalli yuqori chastotali tizimga asoslangan telefon va telegraf aloqa tarmoqlari rivojlanib bordi. Telegraf aloqasi Morze tizimiga asoslangan bo'lib "Dubern" klopferlari bilan AM UFT tizimi yordamida hosil qilingan. Birinchi uzoq masofaga aloqani amalga oshiradigan 900 kanal kuchiga ega bo'lgan koaksial tarmog'i 1906 yili o'rnatilgan va Dehli, Kampur, Kalkutta, Banglor shaharlarini bog'lagan. Jahon telekommunikatsiyaning rivojlanishida bu tarmoq o'zatgichlari o'rniga yanada mukammal texnologiyalar keldi. 1964 yil Hindistonda yuqori chastotali tizim o'rnatila boshladi. 1967 yildan PENTACONTA komision stansiyasi qo'rildi. Hindiston hukumati tomonidan sanoatni jadallashtirilishi telekommunikatsiya xizmatlariga bo'lgan talabni oshirdi. Biroq 1960-1970 yillarda kerakli texnologiyalar va budjetning moliyalashuvi bu tarmoqni muhit ahamiyatga ega ekanligi tushunmaslik texnologik darajani qolib ketishi va hayotda bo'ladigan telekommunikatsiyaga bo'lgan talab qondirilmay

qoldi. Hindistonda telekommunikatsiya sohasining birdan kutarilishi uning muhimligini tushunish Sem Pedro nomi bilan bog'liq. U hindistonda ilmiy-texnika sohasida eng mashxuri edi. Aloqa vositalari sohasidagi mutaxassis Petrod AQSh da faoliyat olib borib, ilmiy tadqiqod va konstruksuyaviy ishlab chiqarish dasturi tashabbuskori bo'lgan. Bunda asosiy maqsad Hindiston texnologiyalariga asoslangan holda yuqori va samarali aloqa tizimini yaratishdir. Hindiston bosh vaziri Radjiv Gandi Petrodga ishonch bildirib, 1984 –yilda tashkil etilgan Telematika rivojlanish markazining Hindiston hukumati tarkibiga avtonom tashkilot bo'lib, ilmiy tadqiqod va konstruktiv qayta ishlash sohasida kommunikatsiya uskunalari, yangi avlod o'tkazuvchi tizimi sohasida ilmiy ish olib bordi. Sem Petrod va u boshqaradigan markazning maqsadi, uning takidlashicha nafaqat ATS qurish, balkim Hindistonni texnologiyalarga o'tish revolutsiyasini amalga oshirildi va bunda yuqori natijalarga erishildi. 15 yil davomida tematika markazida Jahon va Hindiston texnologiya talablariga javob beradigan masofaviy aloqa vositalari kabi bir qator aloqa vositalari ishlab chiqildi. Birinchi navbatda bu shahar va qishloq rayonlarida ishlatiladigan raqamli kommunikatsion tizimga tegishli edi. Bugungi kunda tematika markazi soatiga 800.000 telefon qo'ng'iroqlariga xizmat qilishadi va 1.500 dan 40,000 gacha shahar rayonlari uchun bir nechta raqamli kommunikatsion tizimlar ishlab chiqildi. Qarib 40% ga yaqin Hindiston telefon liniyalari shu tizimda ishlaydi. Lekin telematika markazining asosiy yutug'i shunda ediki, hech qanday shak shubhasiz qishloq rayonlariga yo'naltirilgan telealoqaning texnologik yangi tizimidir. Unchalik katta bo'lmagan 200 telefon tarmoqlariga ixtisoslashtirilgan kommunikatsion stansiya uzoq masofaga joylashgan qishloqlar bilan aloqa o'rnatib mahalliy qishloqlarni telefonshtirish tizimida haqiqiy inqilobga

sabab bo'ldi. Hindistonda qishloq rayonlarida qarib 90% ga yaqin telefon tarmoqlarida tematik markazi tomonidan ishlab chiqilgan kommunikatsion stansiyalar orqali ishlaydi. Telefon istimollari uchun katta bo'lmagan ATS lar 20dan ortiq osiyo, afrika, lotin amerika mamlakatlari uchun asosiy eksport tarmog'i hisoblanadi. 1980-yil boshlarida Hindiston iqtisodida jadal o'suvchi va zamonaviy telekommunikatsion sektorlaridan biri bo'ldi. Hindiston telekommunikatsiya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra 2000-yilda Osiyoda 28,4 mln. stansiya, 35mln telefon tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi, 28,9 mln. telefon tarmog'i mavjud edi. O'rnatilgan telefonlarning $\frac{1}{4}$ qismi Hindistonning 4 ta megapolisi-Dehli, Kalkutta, Mumbai va Madras shaharlariga to'g'ri keladi. Uzoq masofaga uzatish tizimi 135 000 km, radiotarmoq 76000 km. Optika-tolayaviy tarmoqlar tizimidan tashkil topgan. Telegraf aloqasi mamlakatning qishloq rayonlari uchun horizgacha muhim aloqa vositasi bo'lib 45.5 ming telegraf ofislarida amalga oshiriladi. Telekommunikatsiya bozorida bosh o'rinlarni egallab turuvchi Telealoqa vazirligi o'zining faoliyati davrida monopoliya holatini saqlagan holda bir nechta kompaniyalari ya'ni "Manhangar Telefonmego", "India Telefon Industry", "Telecommunications Consaltion India" kompaniyalari bilan tarmoq strategiyasi tuzib chiqqan. 1996 yilda xususiy operatorlarga va uyali aloqa bozoriga yo'l ochildi. Uyali aloqa telefonlari 648 shahar va aholi punktlarida, Hindiston asosiy 4 ta yirik Dehli, Mumbai, Kalkutta va Chennay shaharlarida 2000 yilga kelib uyali telefonlarning egalari 2,6 mln.ni tashkil etgan. Mamlakatnin asossiy telefon liniyalari 2010- yildagi ma'lumotga ko'ra 36 mln 760 ming ta ni tashkil qiladi dunyoda 7- o'rinda turadi. Hozirgi kunga kelib uyali telefon aloqalari bo'yicha foydalanuvchi odamlar soni 545 mln ga yetdi. Hindiston telefonlardan foydalanish bo'yicha dunyoda 2-

o'rinni egallaydi (Xitoydan keyin). Asosiy telefon liniyalaridan foydalanuvchilar soni 600 mln abonentlar umumiy aholining 50 foizini tashkil qiladi. Shahar telefon aloqalarida asosiy linyalar 100 % , qishloqda esa 20 % dan oshmoqda . Asosiy telefondan foydalanuvchilar sonidan hozirgi kunga kelib abonent to'lovi uchun 20 mln Aqsh dollari oyiga davlat byudjetiga to'laniladi. 19 ta telekommunikatsion provayderlar internet sohasida faolliyat ko'rsatishadi. Internet xostlari Hindistonda hozirgi kunda 45 mln 360 ming tani tashkil etadi dunyoda 18- o'rinda turadi . Internetdan foydalanuvchilar soni 2000- yilda 2 mln tashkil qilgan bo'lsa, 2009- yilga kelib 81 mln bo'lgan va bu sohada mamlakat 4- o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda Hind milliy sputnik tizimida 6 ta yirik sputniklardan 33 ming kichik aperature terminallari qo'llab quvatlangan Hindiston Xalqaro telefon bo'yicha kod nomeri (+91). Mamlakatning internet kodi (.B).

Hindiston information kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi bo'yicha jahondagi yirik markazlardan hisoblanadi. Infarmatsion kommunikatsion texnologiyalar mamlakatning YaIM dagi ulushining 2007- yilda 5,5 foizini tashkil qilgan bo'lsa 2009- yilda esa 7,5 foizni tashkil qildi. Ushbu sohada aholining 2,5 mln band. Ishlab chiqarilgan maxsulotlarning qiymati 2008- yilda 47,8 mlrd Aqsh dollarini tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 10 yil avvalgisidan o'n marotaba ko'p. Yuqori texnologiyalar bilan shug'ullanadigan "Infosys" korxonasi biznesni kengaytirish maqsadida "Phillips" kompaniyasining 250 mln Aqsh Dollariga teng 3 ta bo'limini sotib olgan.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikka erishgandan keyin umum qabul qilgan demokratik tamoyillar asosida iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos modelini ishlab chiqish bo'yicha faol harakatlar olib bordi. Bunga yonma-yon tarzda birinchi marotaba mustaqil ravishda mamlakat tashqi siyosiy faoliyatini belgilab, yagona dunyo hamjamiyati maydoniga teng huquqli sub'ekt sifatida kirishga intildi. Shu vaqtning o'zida O'zbekistonning hindiston bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga bo'lgan manfaatdorligining muhim xususiyatlaridan biri uning mamlakatni siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishdagi tajribasi bo'lib, bu bizning respublikamiz uchun katta qiziqish uyg'otadi.

Ikki davlat o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikning asosi O'zbekiston mustaqilligining ilk yillaridanoq mustahkam huquqiy bazaning qo'yilganligi bo'ldi. Aynan ushbu zaminda, sifat jihatdan yangi darajada O'zbekiston va hindiston o'rtasidagi ikki tomon uchun manfaatli bo'lgan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlana boshladi.

2005 yil 11-12 mayda "Uzbekistan aloqa va axborot texnologiyalarning rivojlanishi xolati va istikbollari" mavzusida Uzbekistonda aloqa va axborotlashtirish agentliginig 50 yilligi va Toshkent teleminorasining ishga tushganining 20 yilligiga bagishlangan yubiley, Xalkaro Ilmiy-texnik Konferentsiya utkazildi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad telekommunikatsiya kurilmalari va tizimlari, mobil aloqa tizimlari va xizmatlari, dasturiy maxsulotlar va axborot texnologiyalari, aloqa sohasidagi menedjment va marketing, internet va korporativ tarmoqlar, pochta aloqasi, radioaloqa, radiouzatish va televidenieni sohalarini jadal rivojlantirish edi.

Ushbu tarmoqlarni rivojlantirishda hindiston tajribasidan foydalanish mamlakat iqtisodini yuqori pohonalarga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lomakin. Mirovaya ekonomika M.: 2005
2. J. India perspektivi #2,2009.
3. Rol gosudarstva v perexodnoy ekonomike: opit Indii. M. 2000.
4. Keval. J. Kumar. Mass Communication in India 2006
5. Asadova R.B. O'zbekiston-Hindiston hamkorligi Jamiyat va boshqaruv. Jurnalning bu soni "Demokratik yangilanish, huquqiy davlat qurish va inson omilining istiqbollari yosh olimlar nigohida" mavzusidagi ilmiy anjumanga bag'ishlangan. – 2006. – B. 147-149.
6. <http://www.india.ru/business/review.shtml>
7. http://www.indianembassy-tm.com/economics_branch.htm
8. http://www.indianembassy-tm.com/economics_sectors.htm
9. www.indiarailways.gov.in